YOSHLARDA HUQUQIY SAVODXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH USUL VA VOSITALARI

Kenjayev Shavkatjon Xusanovich
GulDU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy davlat qurishda huquqiy ong va huquqiy savodxonlik madaniyatning o‘rni kattaligi va buning uchun avvalo har bir shaxsning huquqiy immunitetini, huquqiy savodxonlik darajasini yaxshilash masalalari yoritib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: davlat, huquq, qonun, huquqiyong, huquqiymadaniyat, partiya, shaxs, farmon, jamiyat, demokratiya, siyosat, norma.

Har qanday jamiyat, davlat ma’lum adolatni himoya etuvchi, huquqiy qonunlar asosida idora etiladigan, adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmaydigan, qonun ustuvor bo‘lgan adolatli jamiyat ta’limotini yaratishga, uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi”- degan buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning shiddat bilan o‘sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy- siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo‘lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta’minlab bergan ko‘plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin. O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish davrida nafaqat umume’tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarining butun kompleksini qonuniy mustahkamlagan barqaror huquqiy baza tashkil etildi, balki inson huquqlari sohasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga rioya etishni o‘rnatuvchi tartib va mexanizmlar ham yaratildi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvar kuni PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonni qabul qilish zarurati quyidagilar sababli vujudga keldi:

- Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi;

- Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatayotganligi va shu kabi boshqa muammolar.

Hujjatda qayd etilishicha, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta’minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;

yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

“Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan kontseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanadi.

Belgilab qo‘yilishicha, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

Xulosa o‘rnida huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e’tibor, sabr-toqat kabi ma’rifat va haqiqat tuyg‘ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo‘lida fidokorona mehnat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usini, qonunlarni bilish va unga qat’iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo‘lib kelmoqda.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti - bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir. Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin". Professor Dmitrievning ta'rificha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari,g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir" Huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga kelsak, U.Tajixanov va A.Saidovlar o'zlarining Huquqiy madaniyat nazariyasi nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berishadi: "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga murosasiz bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz" Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan toliq tarzda xabardor bo'lib, o'rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va tushunib yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqattan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib keladigan yot g'oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o'z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulnora Inomjonova. "Nikoh shartnomasi-oila mustahkamligining huquqiy kafolati" ilmiy-amaliy qo'llanma, -T.: Intellekt Ekspert, 2015, 10-b

2. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi." O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b

3. Islomov.Z.M.Davlat va huquq nazariyasi.-T.: Adolat, 2007.-537-b

4. Ю.А.Дмитриев.Правосознание и правовая культураю / Теория государства и права.Под.ред.Пиголкина. – Москва:Юрайт – Издат, 2006.- С. 547

5. U.Tajixanov, A,Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi 1-tom.- Toshkent. 1998, 11-b

6. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan. Nrm.uz

7. Odilqoriyev X.T Davlat va huquq nazariyasi (darslik). – T.: "Adolat", 2018, 287-b.

8.Botirov M. Oila huquqi. Toshkent-DOOKMANY PRINT- 2023.

9.Sh. Kenjayev. Ijtimoiy me'yorlr va xulq og'ishining psixologik omillri, Toshkent-Metodist-2024 y.

10. Sh. Kenjayev/.Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. Toshkent- Metodist-2024 y

11. Internet ma'lumotlari